

JAMOAT TARTIBINI SAQLASHDA ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALARNING TUTGAN O'RNI

Aytbayev Sanjar Sadullayevich

O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti magistratura tinglovchisi

Annotatsiya: *Mazkur maqolada muallif jamoat xavfsizligi ta'minlash bo'yicha qabul qilingan rahbariy hujjatlar, jamoat tartibini saqlash bo'yicha olib borilayotgan islohatlar hamda jamoat tartibini saqlash sohasiga raqamli texnologiyalarni joriy qilish bo'yicha o'z takliflarini berib o'tgan.*

Kalit so'zlar: *ommaviy tadbir, xavfsizlik, jinoyatlar, huquqbuzarliklar, bayram, dron, raqamli texnologiyalar.*

Аннотация: *В данной статье автор изложил принятые руководящие документы по обеспечению общественной безопасности, проводимые реформы по поддержанию общественного порядка, а также свои предложения по внедрению цифровых технологий в сферу охраны общественного порядка.*

Ключевые слова: *публичное мероприятие, безопасность, преступления, правонарушения, праздник, дрон, цифровые технологии*

Jahonda inson huquqlarini himoyalash va erkinlik kafolatlarini so'zsiz ta'minlash tizimi, avvalo adolat ustuvorligining negizi bo'lgan qonunlar bilan qaror toptiriladi. O'z o'rnida qonun doirasi ushbu masuliyatli vazifalarni bajarishda huquqni muhofaza qiluvchi organlarning vakolatlari, barcha bo'g'indagi rahbar va shaxsiy tarkibning kasbiy bilimlari, avvalambor, jamoat tartibini saqlash va xavfsizligini ta'minlash mexanizmini takomillashtirishga safarbar etilmoqda.

Dunyoning ko'plab rivojlangan davlatlari kabi mamlakatimizda ham ommaviy tadbirlar davomida jamoat tartibini saqlash va xavfsizligini ta'minlash masalasi dolzarb ahamiyatga ega. Chunki hozirda statistika bo'yicha eng ko'p huquqbuzarliklar ommaviy tadbirlarda sodir bo'lmoqda. Shu sababdan aynan ommaviy tadbirlarda jamoat tartibini saqlash mexanizmini takomillashtirish ishlari jadal olib bormoqda. Biroq tadbirlarda ishtirok etuvchilarning soni bilan birgalikda sodir etilayotgan jinoyatlar soni ham yildan yilga ortib bormoqda.

So'ngi yillarda jamoat xavfsizligi va uni ta'minlashga doir ma'muriy qonunchilik bir qator me'yoriy-huquqiy hujjatlar bilan to'ldirildi. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 29-noyabrdagi "O'zbekiston Respublikasi jamoat xavfsizligi konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"¹gi PF-27-son farmoni jamoat xavfsizligini ta'minlash sohasidagi davlat siyosatini belgilovchi muhim hujjat hisoblanadi. Ushbu hujjat qabul qilinishidan

¹ O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 29-noyabrdagi "O'zbekiston Respublikasi jamoat xavfsizligi konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 27-son farmoni. <http://lex.uz>

asosiy maqsad aholining tinch va osoyishta hayotini ta'minlash, jamiyatimizda qonunga itoatkorlik va jamoat xavfsizligi madaniyatini shakllantirish, jamoat xavfsizligini ta'minlash tizimini yanada rivojlantirish, sohadagi davlat siyosatining istiqbolli yo'nalishlarini belgilashdan hamda davlat organlarining jamoatchilik tuzilmalari bilan o'zaro maqsadli hamkorligini yanada kuchaytirishdan iborat.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida" gi PF-60-son Farmonida jamoat xavfsizligini ta'minlash, huquqbuzarliklarning sodir etilishiga sabab bo'lgan shart-sharoitlarni o'z vaqtida aniqlash va bartaraf etishning samarali tizimini yaratish, huquqbuzarliklarning oldini olish tizimini sifat jihatdan yangi bosqichga olib chiqish, jamoat tartibini saqlash bo'yicha patrullik xizmati faoliyatini tubdan takomillashtirish kabi masalalar atroflicha keltirilgan.

Yuqorida ta'kidlab o'tganimizdek aholining demografik o'sishi, jinoyat sodir etish usullarining oshishi va boshqa ijtimoiy sabablar natijasida mamlakatimizda jinoyatlar statistikasida o'sish kuzatilmoqda. Eng og'ir jinoyat bo'yicha 2022-yilda mamlakatimizda 365 ta qasddan odam o'ldirish jinoyati qayd etilgan. Aynan qotillik jinoyatining xalqaro reytinglariga ko'ra, AQSh va Rossiyada har 100 ming aholiga 7 ta qotillik, Braziliyada 22 ta, Qozog'istonda 3 ta, Ozarboyjon va Kanadada 2 ta, O'zbekistonda esa ushbu ko'rsatkich 1 taga to'g'ri keladi.

Bugungi kunda huquqbuzarliklarni sodir etish uchun eng qulay vaziyatlar sifatida bayram tadbirlarini aytishimiz mumkin. Sababi aynan bayram tadbirlariga ko'p sonli fuqarolar ishtirok etishadi. Shu boisdan bayram tadbirlarida jamoat tartibini saqlash bugungi kunda eng dolzarb mavzulardan biri bo'lib qolmoqda.

Huquqbuzarliklarning oldini olish bo'yicha bir qancha chora-tadbirlar amalga oshirilishiga qaramasdan, ularni butunlay jilovlashni uddasidan chiqishning imkoni bo'lmayapti. Sababi bugungi globallashuv jarayonida huquqbuzarliklarni sodir etish sharoitlari, usullari va boshqa ta'sir etuvchi omillar kun sayin o'zgarib, unga qarshi kurashishning yangi zamonaviy mexanizmlarini talab qilmoqda.

Hozirda dunyoning deyarli barcha mamlakatlari huquqbuzarliklar profilaktikasini amalga oshirish, huquqbuzarliklarni o'z vaqtida aniqlashda raqamli texnologiyalardan keng foydalanmoqda. Bularga misol sifatida, kuzatuv kameralari va ularni monitoring markazlariga integratsiya qilinishidir. Ayniqsa huquqbuzarliklarni masofadan turib aniqlash va ularni dalil sifatida saqlab qo'yish imkonini yaratilganligi huquqni muhofaza qilish organlarining jinoyatlarni zudlik bilan aniqlashga katta yordam bermoqda.

Yevropa mamlakatlarida obyektlarni qo'riqlash va himoya qilishda muntazam ravishda aylanib yuradigan qo'riqchilarga, qo'riqchi itlarga va maxsus kuzatuv tizimlariga ishonib topshirilgan. Horijda bunday tizimlarni yaratuvchi bir qancha kompaniyalar mavjud bo'lib, AQSHning "Aptonomy" kompaniyasi ham shular sirasidan.



Kompaniya dastlab jazoni ijro etish muassasalari uchun “qo‘riqchi dronlar” yaratishni boshladi, bu muassasada saqlanayotgan shaxslarni qamoqdan qochishini oldini olish va ularni taqib qilish uchun mo‘ljallangan edi. Keyinchalik kompaniya kinematograflar tomonidan tez-tez ishlatiladigan va videokameralar bilan jihozlangan sakkiz vintli Dji s-1000+ uchuvchisiz vertolyotini yaratdi. Mazkur uchuvchisiz vertolyotga kunduzgi va tungi ko‘rish kameralari o‘rnatilgan bo‘lib, u olingan video va fotosuratlarni xotirada saqlab qoladi. Shuningdek, drondagi yorqin yorug‘lik chiroqlari va karnay tizimlari tartibbuzarga psixologik ta‘sir o‘tkazish imkonini beradi. Apparat tashqi xususiyatlaridan tashqari, eng asosiysi navigatsiya tizimlari orqali past va tez uchishiga imkonining mavjudligi bo‘lib, dron to‘siqlardan qochadi va odamlarning avtonom harakatini aniqlaydi, yuzlarni taniydi.

Dronni ishga tushurishda foydalanuvchi brauzerni ochib Aptonomy interfeysiga o‘tishi, kerakli joyga uchuvchisiz transport vositasini yuborish uchun xaritadaqi nuqtani tanlashi, so‘ngra parvozni real vaqtda kuzatishi yoki keyinchalik uning yozuvini ko‘rishi mumkin. Bundan tashqari dronlar aynan harakat detektori shubhali faoliyatni aniqlaydigan joylarni patrul qilish uchun dasturlashtirilishi mumkin. Dronning yana bir asosiy xususiyati u zaryadsizlanganda, zaryadlash uchun zaryadlash stantsiyasiga mustaqil qaytashidir.

Hozirda ushbu dronlarni katta ishlab chiqarish zavodlari, energetika kompaniyalari, neftni qayta ishlash zavodlarida foydalanish uchun Autonomy kompaniyasiga oldindan buyurtma bergan. Neftni qayta ishlash zavodlari dronlardan asosan tirik qo‘riqchilar tomonidan patrul qilish qiyin bo‘lgan joylarda nazoratni o‘rnatish va vaziyatni kuzatish uchun foydalanishni rejalashtirgan.

Startup asoschilarining fikricha, ko‘proq biznesga ega kompaniyalar xavfsizlik xizmatlarini to‘ldirish yoki ularni butunlay almashtirish uchun bunday dronlardan foydalanishni xohlashadi. Sababi Aptonomy dronlaridan foydalanganda qonunchilikka rioya qilish bilan bog‘liq barcha muammolar hal qilinadi, sababi ular barcha qonunlar va protokollarga rioya qilgan holda obyektlarga yaqinlashish uchun kerakli masofada dasturlashtirilishi mumkin. Bundan tashqari drondagi ovoz chiqaruvchi karnay orqali operator va dron yaqinidagi shaxslar bilan aloqa o‘rnatish mumkin.

Albatta bunday dron ishlab chiqaruvchi kompaniyalar ham, dronlar ham juda ko'p. Ammo bizning fikrimizcha yuqoridagi kabi dronlarni ommaviy tadbirlarda va barcha jamoat joylarida jamoat tartibini saqlashda qo'llashimiz mumkin. Agar biz dronlardan to'g'ri va samarali foydalana olsak quyidagi natijalarga erishishimiz mumkin:

- Ommaviy tadbirlarda umumiy nazoratni o'rnatish;
- Ommaviy tadbir obyektini masofadan birlamchi ko'zdan kechirib chiqish;
- Aynan hududlardagi naryadlar uchun qiyinchilik tug'dirishi mumkin bo'lgan hududlarni oldindan aniqlash;
- Huquqbuzarliklarni masofadan aniqlash va holatni xotiraga saqlab qo'yish;
- Tartibbuzarlik sodir etgan shaxslar qochishga urunganda ularni taqib qilish va keyingi hatti harakatlarini kuzatish;
- Tartibbuzarlarni noqonuniy harakatlarining oqibatlari bo'yicha ogohlantirish;
- Ota-onalar tomonidan bolalarini yo'qotib qo'yishi, fuqarolarning shaxsiy buyumlarini tushurib qo'yishi yoki o'g'irlatish kabi holatlari sodir bo'lganda maxsus karnay orqali xabarlash va qidirish;
- Favqulotda holatlarda tadbir ishtirokchilariga zudlik bilan xabar berish ularni evakuatsiya zonalariga olib chiqishda yo'l ko'rsatish;

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

I. Normativ-huquqiy xujjatlar.

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 29-noyabrdagi "O'zbekiston Respublikasi jamoat xavfsizligi konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-27-son Farmoni.

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2022 — 2026-yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-son Farmoni.

III. Elektron resurslar

1. <http://lex.uz> (O'zbekiston Respublikasi Qonun ujjatlarima'lumotlari milliy bazasi);

2. <https://cyberleninka.ru/>

3. <http://synergy-journal.ru/>